



2023- yil yanvar-noyabr oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(72) 221-51-26



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-noyabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1327706,0 ming AQSH dollariga yetdi va 2022-** yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **698866,0 ming AQSH dollariga yoki 111,1 % ga ko'paydi.**



### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr, ming AQSH dollariga)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1327706,0** **+111,1 %**

(2022- y.: **628840,0**)



#### Saldo

2023- y.: **- 909519,2**

(2022 y.: - **241690,1**)



#### Eksport

2023- y.: **162540,2** **-8,6 %**

(2022- y.: **177890,9**)



Tovarlar: **161972,3**



Xizmatlar: **567,9**



#### Import

2023- y.: **1165165,8** **+158,4 %**

(2022- y.: **450949,1**)



Tovarlar: **1165165,8**



Xizmatlar: **0,0**

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **162540,2** ming AQSH dollariga (**8,6 %** ga kamaydi) va import hajmi **1165165,8** ming AQSH dollariga (**158,4 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-1002625,6** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### **JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO’LGAN DAVLATLAR**

*(2023- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)*

XXR	Koreya Respublikasi	Chexiya	Rossiya	Turkiya
<b>TSA – 671074,9</b>	<b>TSA – 281576,7</b>	<b>TSA – 87470,4</b>	<b>TSA – 73536,0</b>	<b>TSA – 56816,2</b>
Eksport: 32773,7 Import: 638301,2	Eksport: 165,2 Import: 281411,5	Eksport: 106,8 Import: 87363,6	Eksport: 48132,9 Import: 25403,1	Eksport: 31000,2 Import: 25816,0
50,5 %	21,2 %	6,6 %	5,5 %	4,3 %
Litva	Germaniya	Qozog‘iston	Eron	Italiya
<b>TSA – 32526,2</b>	<b>TSA – 26151,5</b>	<b>TSA – 22772,7</b>	<b>TSA – 10714,2</b>	<b>TSA – 6611,5</b>
Eksport: 502,1 Import: 32024,1	Eksport: 665,6 Import: 25485,9	Eksport: 11611,6 Import: 11161,1	Eksport: 6936,3 Import: 3777,9	Eksport: 3804,2 Import: 2807,3
2,5 %	2,0 %	1,7 %	0,8 %	0,5 %

Jizzax viloyati jahoning **70** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**49,6 %**), Koreya Respublikasida (**21,2 %**), Chexiya (**7,3 %**), Rossiyada (**5,3 %**), Turkiyada (**4,4 %**), Litvada (**2,7 %** %), Germaniyada (**2,0 %**) va Qozog'istonda (**1,7 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Belarus, Moldova va Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.

## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)



**Rossiya – 64022,2**



**Qozog 'iston – 20712,9**



**Qirg'iz Respublikasi – 7733,5**



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozog'iston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollarri)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>XXR</b>	<b>113213,2</b>	<b>116674,2</b>	<b>671074,9</b>
<i>Eksport</i>	49327,1	21093,9	32773,7
<i>Import</i>	63886,1	95580,3	638301,2
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>76564,6</b>	<b>152269,6</b>	<b>281576,7</b>
<i>Eksport</i>	6,3	109,7	165,2
<i>Import</i>	76558,3	152159,9	281411,5
<b>Chexiya</b>	<b>546,6</b>	<b>5466,4</b>	<b>87470,4</b>
<i>Eksport</i>	0,3	12,5	106,8
<i>Import</i>	546,3	5453,9	87363,6
<b>Rossiya</b>	<b>67076,8</b>	<b>100595,7</b>	<b>73536,0</b>
<i>Eksport</i>	40230,5	51117,9	48132,9
<i>Import</i>	26846,3	49477,8	25403,1
<b>Turkiya</b>	<b>71855,4</b>	<b>74946,4</b>	<b>56816,2</b>
<i>Eksport</i>	41456,1	40176,6	31000,2
<i>Import</i>	30399,3	34769,8	25816,0
<b>Litva</b>	<b>26444,3</b>	<b>57113,5</b>	<b>32526,2</b>
<i>Eksport</i>	306,8	169,8	502,1
<i>Import</i>	26137,5	56943,7	32024,1
<b>Germaniya</b>	<b>7509,8</b>	<b>8800,4</b>	<b>26151,6</b>
<i>Eksport</i>	332,8	4569,7	665,6
<i>Import</i>	7177,0	4230,7	25486,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>27491,7</b>	<b>39663,9</b>	<b>22772,7</b>
<i>Eksport</i>	12992,5	21916,9	11611,6
<i>Import</i>	14499,2	17747,0	11161,1
<b>Eron</b>	<b>4654,0</b>	<b>4594,5</b>	<b>10714,2</b>
<i>Eksport</i>	1108,1	2011,2	6936,3
<i>Import</i>	3545,9	2583,3	3777,9
<b>Italiya</b>	<b>12103,0</b>	<b>5676,0</b>	<b>6611,6</b>
<i>Eksport</i>	4976,7	4158,5	3804,3
<i>Import</i>	7126,3	1517,5	2807,3


<b>Davlatlar</b>	<b>2021- y.</b>	<b>2022- y.</b>	<b>2023- y.</b>
<b>Hindiston</b>	<b>2171,3</b>	<b>5132,2</b>	<b>6205,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	247,8 1923,5	1834,0 5164,3
<b>Niderlandiya</b>	<b>61,5</b>	<b>5,6</b>	<b>5987,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 61,5	8,8 5978,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>5502,1</b>	<b>12097,1</b>	<b>5745,7</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	4365,9 1136,2	5131,2 6965,9
<b>Afg'oniston</b>	<b>6060,5</b>	<b>8206,3</b>	<b>5604,1</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	5802,4 258,2	7321,6 884,7
<b>Tojikiston</b>	<b>6962,8</b>	<b>5102,9</b>	<b>4462,6</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	4058,3 2904,5	3506,4 1596,5
<b>Pokiston</b>	<b>6699,7</b>	<b>4802,0</b>	<b>3816,9</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	5655,6 1044,1	2535,0 2267,0
<b>Turkmaniston</b>	<b>619,1</b>	<b>1034,4</b>	<b>2654,1</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	320,8 298,3	612,2 422,3
<b>Belarus</b>	<b>1968,7</b>	<b>1864,3</b>	<b>2286,7</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	285,3 1683,4	742,2 1122,0
<b>Shveysariya</b>	<b>692,1</b>	<b>1399,7</b>	<b>2280,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 692,1	- 1399,7
<b>Daniya</b>	<b>2,8</b>	<b>9,3</b>	<b>1642,1</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 2,8	- 9,3




## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-noyabr)\*

	Hajm ming AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1327706,0	211,1	100,0
Jizzax sh.	530690,9	272,5	39,9
hududlar:			
Arnasoy	11079,7	65,6	0,8
Baxmal	9183,4	147,6	0,7
G'allaorol	451946,7	263,6	34,0
Sharof Rashidov	15569,3	77,2	1,2
Do'stlik	18512,7	116,7	1,4
Zomin	22702,0	69,6	1,7
Zarbdor	19442,8	69,6	1,5
Zafarobod	6028,5	72,8	0,5
Mirzacho'l	2029,9	31,2	0,2
Paxtakor	18380,7	94,5	1,4
Forish	220218,1	210,4	16,6
Yangiobod	1816,9	45,8	0,1

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollarlari



Eng quyisi hajm,  
ming AQSH dollarlari



Eng quyisi hajm,  
ming AQSH dollarlari



Eng quyisi hajm,  
ming AQSH dollarlari




Eng quyisi hajm,  
ming AQSH dollarlari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahar **39,9 %** ulush bilan **530690,9** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Yangiobod **0,1 %** ulush bilan **1819,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLLAKATLARI VA BOSHQA XORIJYIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ming AQSH dollarri, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **8,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,7 %** ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-noyabr oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,7 %** ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, **112985,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **71079,9** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **41905,5** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 73536,0  
Eksport – 48132,9  
Import – 25403,1



### Qozog'iston

TSA – 22772,7  
Eksport – 11611,6  
Import – 11161,1



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 5745,7  
Eksport – 4645,0  
Import – 1100,7



### Tojikiston

TSA – 4462,6  
Eksport – 4435,3  
Import – 27,3



### Turkmaniston

TSA – 2654,0  
Eksport – 397,7  
Import – 2256,3



### Belarus

TSA – 2286,7  
Eksport – 675,4  
Import – 1611,3



### Ukraina

TSA – 621,5  
Eksport – 455,5  
Import – 166,0



### Ozarbayjon

TSA – 553,1  
Eksport – 427,8  
Import – 125,3



### Moldova

TSA – 298,0  
Eksport – 243,8  
Import – 54,2



### Armaniston


TSA – 55,0  
Eksport – 55,0  
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**65,1** %), Qozog'iston (**20,2** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**5,1** %) davlatlari bilan qayd etildi.

## JIZZAX VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollarri, ulushi, % da)



**Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi**

7,9 %

**Jami eksportdagisi ulushi**

40,1 %

**Jami importdagisi ulushi**

3,4 %



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **104396,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **65119,9** ming AQSH dollarri, import hajmi esa **39276,2** ming AQSH dollariga yetdi.


Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni **148** taga yetdi va ular tomonidan **162540,2** ming AQSH dollari qiymatidagi (*2022- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga kamaydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

*(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollarri		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>177890,9</b>	<b>162540,2</b>	<b>99,6</b>	<b>91,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	67,7	17,4	13,4 m.	25,7	0,0	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2570,7	3365,1	95,2	130,9	1,4	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	52,9		0,0	0,0	0,0	0,0
Ichimliklar va tamaki	31,5	77,9	0,0	2,5 m.	0,0	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	45457,8	33642,9	152,0	74,0	25,6	20,7
Sanoat tovarlari	91080,9	86644,1	78,2	95,1	51,2	53,3
Turli xil tayyor buyumlar	19184,1	17915,2	119,5	93,4	10,8	11,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5820,2	7371,0	138,5	126,6	3,3	4,5
Xizmatlar	531,2	567,9	132,3	106,9	0,3	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	13093,8	12938,6	148,0	98,8	7,4	8,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,7 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**53,3 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**20,7 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**11,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	19251,1	61,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	805,2	12,2
Hayvonlar uchun ozuqlar (maydalangan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	861,0	2,3 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	40,8	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	6,6	117,7
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1019,8	41,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	226,4	5,8 m.
Qog'oz massasi va makulatura	3705,1	3,0 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	454,9	2,3 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	17,4	25,7
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar va taninlar	5117,1	137,8
Birlamchi bo'limgan shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	4375,1	77,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1505,6	107,9


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	5058,3	6,7
Kauchuk mahsulotlar	0,0	0,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'limgan minerallardan mahsulotlar	6127,6	65,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6127,6	65,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari	2366,7	115,2
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari )	35,0	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	24,1	45,0
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15697,9	93,2
Har xil tayyor buyumlar	60,8	164,3
Oyoq kiyimlar	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1401,9	9,0 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqgan mamlakat, agar kelib chiqgan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-noyabr oyida MDH mamlakatlariga **71079,9** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **43,7 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


*(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)*



2023- yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **86,2 %** ni tashkil etdi.



### RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)**

Davlatlar	ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	51117,9	48132,9	127,1	94,2	1	1
XXR	21093,9	32773,7	42,8	155,4	4	2
Turkiya	40176,6	31000,2	96,9	77,2	2	3
Qozog'iston	21916,9	11611,6	168,7	53,0	3	4
Eron	2011,2	6936,3	181,5	344,9	12	5
Afg'oniston	7321,6	5060,8	126,2	69,1	5	6
Qirg'iz Respublikasi	5131,2	4645,0	117,5	90,5	6	7
Tojikiston	3506,4	4435,3	86,4	126,5	10	8
Italiya	4158,5	3804,3	83,6	91,5	8	9
Pokiston	2535,0	3790,2	44,8	149,5	11	10
Polsha	3622,2	1341,4	2,3 m.	37,0	9	11
Hindiston	1834,0	1041,2	740,0	56,8	13	12
Gruziya	516,4	727,3	119,9	140,8	21	13
Belarus	742,2	675,4	2,6 m.	91,0	17	14
Germaniya	4569,7	665,6	1373,1	14,6	7	15
Litva	169,8	502,1	55,3	2,9 m.	27	16
Ukraina	397,4	455,5	28,1	114,6	22	17
Ozarbayjon	694,5	427,8	100,3	61,6	18	18
Turkmaniston	612,2	397,7	190,8	65,0	20	19
Braziliya	0,3	397,3	17,6	1460,8 m.	43	20



## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)\*

	Hajm ming AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
--	------------------------------------	----------------------------	-----------------


Jizzax viloyati	162540,2	91,4	100,0
-----------------	----------	------	-------

Jizzax sh.	71855,8	93,1	44,2
------------	---------	------	------


hududlar:

Arnasoy	6401,0	109,6	3,9
Baxmal	4318,6	152,5	2,7
G'allaorol	8281,3	94,4	5,1
Sharof Rashidov	5108,9	55,3	3,1
Do'stlik	17356,4	168,6	10,7
Zomin	7466,0	121,7	4,6
Zarbdor	15069,3	71,3	9,3
Zafarobod	1593,5	125,7	1,0
Mirzacho'l	910,0	16,1	0,6
Paxtakor	12963,4	82,3	8,0
Forish	9633,5	92,0	5,9
Yangiobod	1477,9	46,1	0,9

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollarari



Eng quyisi hajm,  
ming AQSH dollarari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **44,2** % bilan **71855,8** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Mirzacho'l **0,6** % bilan **910,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-noyabr oyida import hajmi **1165165,8** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **158,4 %** ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**91,3 %**), sanoat tovarlari (**2,0 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,2 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **714216,7** ming AQSH dollariga ko'paydi va **1165165,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>450949,1</b>	<b>1165165,8</b>	<b>158,2</b>	<b>2,6 m.</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	168,9	4250,2	64,1	25,2 m.	-	0,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	322595,3	1063672,1	175,2	3,3 m.	71,5	91,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	4922,3	12491,2	139,4	2,5 m.	1,1	1,1
Ichimliklar va tamaki	-	5,0	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	44135,5	15361,7	2,0 m.	34,8	9,8	1,3
Sanoat tovarlari	34953,9	23794,5	117,0	68,1	7,8	2,0
Turli xil tayyor buyumlar	6437,1	13990,6	60,7	2,2 m.	1,4	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5642,8	6115,7	67,1	108,4	1,3	0,5
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xhash mahsulotlar	32093,2	25484,9	122,0	79,4	7,1	2,2



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr)

XSST bo'lumi nomi	ming AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8649,6	39,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	7,8	0,0
Sabzavotlar va mevalar	1067,6	13,6
Kofe, choy, kakao,ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	35,0	104,1
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,3	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metall parchalari	133,0	3,2 m.
Probka va yog'och-taxtalar	375,1	56,6
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	2386,6	3,9 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7619,7	11,8 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3615,7	89,5
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3293,2	19,5 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2284,3	26,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9235,9	111,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2102,8	62,3
Noorganik kimyo moddalari	418,9	31,5


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	4005,8	41,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1894,5	81,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	10121,1	71,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	421,8	108,4
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	504905,5	0,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	27760,5	27,1
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	154876,6	9,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	10176,7	134,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3330,1	126,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1315,1	70,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5693,9	3,2 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	355,9	5,2 m.



2023- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlari import ulushi **3,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **51,8 %** ni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari,  
ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oyida **312** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	95580,3	638301,2	149,6	6,7 m.	2	1
Koreya Respublikasi	152159,9	281411,5	198,8	184,9	1	2
Chexiya	5453,9	87363,6	9,9 m.	16,0 m.	8	3
Litva	56943,7	32024,1	2,2 m.	56,2	3	4
Turkiya	34769,8	25816,0	114,4	74,2	5	5
Germaniya	4230,7	25486,0	58,9	6,0 m.	9	6
Rossiya	49477,8	25403,1	184,3	51,3	4	7
Qozog'iston	17747,0	11161,1	122,4	62,9	6	8
Niderlandiya	0,0	5978,2	0,0	0,0	58	9
Hindiston	3298,2	5164,3	171,5	156,6	11	10
Eron	2583,3	3777,9	72,9	146,2	12	11
Italiya	1517,5	2807,3	21,3	185,0	16	12
Shveytsariya	1399,7	2280,4	2,0 m.	162,9	17	13
Turkmaniston	422,3	2256,3	141,6	5,3 m.	24	14
Bangladesh	1230,5	2233,4	89,6	181,5	18	15
Belgiya	85,9	2025,4	5,5	23,6 m.	39	16
Daniya	0,0	1642,1	3,4 m.	0,0	59	17
Belarus	1122,0	1611,3	66,7	143,6	19	18
Latviya	1814,2	1367,6	3,0 m.	75,4	14	19
Qirg'iziston	6965,9	1100,7	6,1 m.	15,8	7	20



## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-noyabr)

	Hajm ming AQSH dollarari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1165165,8	2,6 m.	100,0
Jizzax sh.	458835,1	3,9 m.	39,3
hududlar:			
Arnasoy	4678,6	42,3	0,4
Baxmal	4864,8	143,5	0,4
G'allaorol	443665,4	2,7 m.	38,1
Sharof Rashidov	10460,5	95,7	0,9
Do'stlik	1156,2	20,8	0,1
Zomin	15236,0	57,5	1,3
Zarbdor	4373,6	64,5	0,4
Zafarobod	4435,0	63,2	0,4
Mirzacho'l	1119,9	133,7	0,1
Paxtakor	5417,2	146,6	0,5
Forish	210584,6	2,2 m.	18,1
Yangiobod	339,0	44,6	0,1

Eng yuqori hajm, ming AQSH dollarari



Eng quyisi hajm, ming AQSH dollarari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **39,3** % bilan **458835,1** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Yangiobod **0,1** % bilan **339,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **1063672,1** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **229,7 %** ga ko‘paydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **91,3 %** ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr)




65 2023- yil yanvar-noyabr oyida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **741871,1** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **618063,9** ming AQSH dollari (**57,9 %**), Koreya Respublikasi – **272021,3** ming AQSH dollari (**25,6 %**) va Chexiya – **87324,5** ming AQSH dollari (**8,2 %**) kabi davlatlarga to‘g‘ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-noyabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **110438,6** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **87,6 %** ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **10,4 %** ni tashkil etdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

**33112,3** ming AQSH doll  
ulushi – **30,0 %**



XXR

**27421,7** ming AQSH doll.  
ulushi – **24,8 %**



Turkiya

**25833,3** ming AQSH doll.  
ulushi – **23,4 %**



Rossiya

**4398,5** ming AQSH doll  
ulushi – **4,0 %**



Qozog'iston

**3612,5** ming AQSH doll.  
ulushi – **3,3 %**



Italiya



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**88304,2** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**4639,5** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**2528,1** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**1268,2** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.